



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori;
5. S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR O'RNI VA AHAMIYATI

Nasrullayev To'lg'injon Ismatulla o'g'li

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotatsiya: Bu tezis innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xorijiy tajribalar tushunchasini o'rganishga va rahbari oliy ta'lim tizimida o'z innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar va dasturlarni o'rganishga bag'ishlangan. Mavzu ilmiy tadqiqotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, oliy ta'limning yangi texnologiyalar va xorijiy tajribalarni qabul qilishning ahamiyati haqida nazariy tushunchalarni ta'minlaydi. Annotatsiya davlatlararo hamkorlik, rivojlantirilayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimlarini mustahkamlash va o'zaro ta'sirlashishni o'rganish uchun muhim bo'ladi. Tezisda xorijiy tajribalar va ulardan olingan o'rgangan darslar rivojlanishga ko'maklashish, shuningdek, innovatsion faoliyatni oshirishga qaratilgan strategiyalar va dasturlarni tahlil qilish uchun muhimdir.

Abstract

This thesis is dedicated to the study of the experience of providing in the development of innovative activity and to the study of strategies and programs aimed at the development of the leader's innovative activity in the higher education system. The topic has an important



enterprise in scientific research, providing theories about the importance of higher education adopting new technologies and experiences. The abstract will be important for inter-company cooperation, improvement of education systems of developing countries and study. Opportunities for analysis of strategies and programs to facilitate the production of experiences and lessons learned in the thesis, planning of innovative activities.

Kalit soʻzlar

Texnologiya integratsiyasi, oʻquv dasturlarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, raqamli taʼlim vositalari, fanlararo dasturlar, talabalarning ishtiroki, institutsional oʻzgarish, tadqiqot innovatsiyasi, tadbirkorlik taʼlimi, onlayn taʼlim platformalari.

Kirish: Ushbu tezisdagi xorijiy tajribalar oliy taʼlim muassasalari rahbariyatidagi innovatsion faoliyatni qanday yaxshilashi mumkinligini oʻrganadi. U xalqaro tushunchalar orqali innovatsiyalarni ilgari surish uchun yetakchilar tomonidan ishlab chiqilgan strategiya va dasturlarni tekshiradi.

Ahamiyati: Mazkur tezisdagi oliy taʼlim tizimiga yangi texnologiyalar va xorijiy tajribalarni integratsiyalashga qoʻshgan nazariy hissasi bilan ahamiyatlidir. Unda xalqaro hamkorlikning ahamiyati va uning taʼlim tizimlariga taʼsiri haqida soʻz boradi.

Maqsadlar: xorijiy tajribalarni oʻrganishni kuchaytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish strategiyalarini tahlil qilish va xalqaro hamkorlik orqali taʼlim tizimini mustahkamlashga qaratilgan.

Oliy taʼlim muassalarida xorijiy hamkorlik aloqalarining asosiy maqsadi boʻlib taʼlim xizmatlari bozorini kengaytirish uchun oliy oʻquv yurtlarining harakatlarini birlashtirish, bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, talabalarning akademik mobillik huquqlarini amalga oshirish hisoblanadi. Hamkorlik aloqalari doirasida tashkil etilgan yangicha boshqaruv tuzilmalari mazkur oliy oʻquv yurtlarining kadrlar, metodik, axborot, intellektual va ilmiy resurslarini birlashtirish hamda muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Yuqoridagi hamkorlik aloqalari namunalari qatorida LINK - Learning International Network) – Xalqaro taʼlim tarmogʻini keltirish mumkin, bu hamkorlik aloqalari biznes-



ta'lim sohasida xalqaro darajadagi oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bilan shug'ullanadi. Bu hamkorlik aloqalari tarkibiga kiruvchi tashkilotlar tomonidan 1999 yilda Ochiq ta'lim hamkorlik aloqalari tuzilgan bo'lib, uning asosiy vazifalari qatorida hamkorlik aloqalari a'zosi sanalgan banklar faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, boshqaruv kompetentligi standartlarini shakllantirish hamda tarqatish ko'rsatib o'tiladi. Hozirgi kunda LINK faqatgina ta'lim muassasalari dasturlari bo'yicha yiliga 9000 nafar menejerlarni tayyorlab yetishtiradigan Rossiya Federatsiyasida Biznes-maktablarning eng yiriklaridan biri hisoblanadi. Bu hamkorlik aloqalari faoliyat boshlanganidan beri to shu kungacha 75000 nafardan ortiq kishi o'z malakalarini oshirganlar.

Ta'lim sohasining biznes va ishlab chiqarish bilan hamkorlik aloqalariga misol bo'la oladigan namuna sifatida Amerika Qo'shma Shtatlarida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelayotgan ikkita eng mashhur va eng keksa konsorsiumlarni – O'rnatilgan Hamkorlik bo'yicha Qo'mita va Five College Incorporation (Besh kollej birlashmasi) konsorsiumlarini ko'rsatish mumkin. O'rnatilgan Hamkorlik bo'yicha Qo'mita Big Ten (Katta O'nlik) sport konferensiyalarini hamda Chikago universitetini o'z ichiga oladi. Five College Incorporation (Besh kollej birlashmasi) hamkorlik aloqalari esa Amxyorst kolleji, Gempshir kolleji, Maunt-Xoliok kolleji, Smit kolleji va Amxyorst shahridagi Massachusetts universitetini o'z tarkibiga olgandir. Ta'lim sohasidagi mana shunday muvaffaqiyatli hamkorlik aloqalari safiga Ogayoning beshta kollejining hamkorlik aloqalarini ham kiritishimiz mumkin bo'lib, u o'z safiga Oberlin kolleji, Ueslian universiteti, Kenon kolleji, Vuster kolleji va Denison universitetini oladi. Ularning hamkorlik aloqalari akademik va ma'muriy resurslarni qanchalik birlashtirish lozim bo'lsa, inson omili va moddiy aktivlarni shunchalik ajratish uchun a'zo kollejlari va universitetlarning resurslarini birlashtirdilar.

Yana bir ahamiyatli tomon shundaki, ta'lim va ishlab chiqarishning hamkorlik aloqalari tuzilmaviy birliklarining har biri o'zining qandaydir avtomatlashtirilgan vositalaridan foydalanadi va ularning hammasini yagona avtomatlashtirilgan tizimga keltirish mushkuldir. Bu yerda hamkorlik aloqalari ichidagi jarayonlar va tizimlarning yagona biznes-makonga va biznes-modelga birlashtirish ochiq-ravshan bo'lib ko'rinadi, lekin oddiyginasiga mana shunday mexanik "biriktirib" qo'yish natijasida deyarli barcha



bo'g'inlar muammolar manbaiga aylanadilar. Hamkorlik aloqalari bo'linmalari ishlari haqida aniq axborotlarni doimiy ravishda olishga ko'nikib qolgan menejer uchun bunday vaziyatdagi hamkorlik aloqalari "to'liq beboshlik" girdobiga tushgan korxona bo'lib tuyuladi. Bu yerda garchi hamkorlik aloqalari ishtirokchilarining barcha xodimlari zarur ishlarni bajarayotgan va boshqaruvchilarga axborotlar o'z vaqtida berib borilayotgan bo'lsada, lekin yagona standartlarning yo'qligi soni doim oshib boruvchi ko'plab ichki muammolarni keltirib chiqaraveradi. Aynan mana shu muammolar OTM va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik aloqalari faoliyatidagi asosiy muammolar o'zagini tashkil etadi.

OTM va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlik aloqalari faoliyatidagi jarayonlarni jadallashtirish uchun boshqaruvchilar ko'pincha emotsional asosda hamkorlik aloqalarida tezda tartibni yuzaga keltirishiga ishonch bildiriladigan "qimmat, lekin kerakli" samarali avtomatlashtrilgan boshqaruv tizimi haqida qarorni qabul qilishlari mumkin. Lekin shuni e'tiborga olish lozimki, inson resurslari, jumladan, boshqaruv kuchlarining ma'lum bir urinishlarisiz biron-bir biznes-jarayonlarni yagona ko'rinishga va bir xillikka keltirishda hech qanday yangi tizim samara bermaydi. Chunki, har bir individual tuzilma yangiliklarni joriy qilish davomida o'zining hisobdan chiqarib tashlanishi yoki qayta o'zgartirilishiga qarshi himoya instinktini qo'llashga o'tib oladi. Shuning uchun hamkorlik aloqalari faoliyatidagi mana shunday muammolarni hal qilish uchun yuqori malakali, yetuk mutaxassislarning mavjud bo'lishi talab qilinadi.

Ta'limning asosiy maqsadi talabanning keyingi innovatsion faoliyatiga asos bo'lish va shu bilan birgalikda mamlakatda innovatsion rivojlantirishga hissa qo'shish omillariga asoslangan bo'lishi kerak.

Xulosa

Bu tezisda innovatsiyalar va o'quv jarayonlarini rivojlantirish bo'yicha tajribalar, strategiyalar va muvaffaqiyatlar ustida qurilgan. Oliy ta'lim tizimlarida innovatsiyalarni kengaytirish va o'zgartirishga qaratilgan qadriyatli strategiyalar va dasturlarni tahlil qilish maqsadida amalga oshirilgan. Bu mavzu o'quv jarayonlari, texnologiyalar integratsiyasi, tadbirlar, va global muhitda o'zaro ta'sirlashishga qaratilgan maslahatlar va dasturlar ustida nazariy va amaliy yuzaga chiqishlarni ta'minlaydi.



Oliy ta'lim tizimlarida yangiliklar o'rnatish va ularga o'zgartirish qilish uchun qadriyatli usullarni o'rganishga bag'ishlangan. O'quv jarayonlari, texnologiyalar integratsiyasi, va global muhitda innovatsiyalar va o'zgarishlar ustida amaliy yuzaga chiqishlar taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oxunov Alisher Oripovich. TTA. 1.1 Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish. Xorijiy davlatlardagi kredit ta'lim tizimlari.
2. M.Mutalipova, M.Imomov. "Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar" – moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. Toshkent – 2017
3. Muhitdinova N.K. Sovershenstvovaniye teoretiko-metodologicheskix osnov innovatsionnogo razvitiya natsionalnoy ekonomiki v usloviyax globalizatsii. Tashkent – 2016. -250 s.
4. Kurbanbayeva N. Analiz probelov v sfere nauki i texnologiy i innovatsiy (NTI) v O'zbekistane. –T. 2020. –S.25
5. Otajonov Sh. Salaxadjayev R. Innovatsionnoye ekonomicheskoye razvitiye O'zbekistana: tendensii i perspektivi//<https://review.uz/post/innovacionnoe-ekonomicheskoe-razvitieuzbekistana-tendencii-i-perspektiv>
6. Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. –Toshkent, 2018.- 22 b.
7. Sadikov A.M. Novaya strategiya razvitiya O'zbekistana: formirovaniye, prioriteti, realizatsiya / Monografiya. –T, 2019. -536 s.
8. Parmenter, David. Key performance indicators: developing, implementing, and using winning KPIs. USA 2007.
9. N.I. Arxipova, I.M. Pomortseva, N.A. Tatarinova Algoritm otsenki kachestva personala na baze pokazateley effektivnosti KPI. Statya 2014.
10. Arxipova N.I., Pomortseva I.M., Sedova O.L. Kadrovaya politika kak faktor strategicheskogo razvitiya universiteta // Vestnik RGGU. 2013. № 6 (107). S. 43.